V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

SHAKAROVA MARJONA DILSHOD QIZI

KASR TARTIBLI SHREDINGER VA SUBDIFFUZIYA TENGLAMALARI UCHUN TO‘G‘RI VA TESKARI MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2025 yil

UDK: 517.927 517.95

Fizika – matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical – mathematical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико – математическим наукам

V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

SHAKAROVA MARJONA DILSHOD QIZI

KASR TARTIBLI SHREDINGER VA SUBDIFFUZIYA TENGLAMALARI UCHUN TO‘G‘RI VA TESKARI MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2025

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.4.PhD/FM1178 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (резюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http://kengash.mathinst.uz) va «Ziyonet» ta’lim axborot tarmog‘ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ashurov Ravshan Radjabovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Durdiyev Durdimurod Qalandarovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Yaxshiboyev Maxmadiyor Umirovich fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika Instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «01» iyul soat 17:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871)-207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika Institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (206-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871)-207-91-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «13» iyun kuni tarqatildi.
(2025 yil «13» iyundagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

U.A.Roziqov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., akademik

J.K.Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

A.A.Azamov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., akademik

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. So‘nggi o‘n yilliklarda kasr tartibli differensial tenglamalar dunyo miqyosida turli xil anomal hodisalarni modellashtirish uchun muhim matematik vosita sifatida paydo bo‘ldi. Shu sabali ko‘plab matematik olimlar kasr tartibli differensial tenglamalarni yechishning yangi usullarini faol ravishda o‘rganib, ularning yechimlarining xususiyatlarini tadqiq qilishmoqda. Kasr tartibli differensial tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni o‘rganishdan tashqari, ushbu tenglamalarning koeffitsiyentlarini, o‘ng tomondagi manba funksiyasini, chegaraviy shartlarni, hamda kasr tartibli hosilaning tartibini aniqlash bilan bog‘liq teskari masalalarni tadqiq etish ham muhim amaliy ahamiyatga egadir. Ushbu dissertatsiya kasr tartibli differensial tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni, shuningdek, diffuziya, subdiffuziya va kasr tartibli Shredinger tipidagi tenglamalar uchun manba funksiyasini aniqlashga doir teskari masalalarni o‘rganishga bag‘ishlangan.

Hozirgi kunda kasr tartibli tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarni o‘rganish fizik jarayonlarni tahlil qilish va boshqarish imkonini beradi. Manba funksiyasini (tenglamaning o‘ng tomoni $F(x,t)$) aniqlashga oid teskari masalalar mexanika, seysmologiya, tibbiy tomografiya va geofizika kabi sohalardagi amaliy ehtiyojlar bilan bog‘liq. Masalan, $F(x,t)=g(t)$ bo‘lgan holda, atom elektr stansiyalarida yuz bergan avariyalar holatlarida manba joylashuvi ma’lum bo‘lishi mumkin, lekin nurlanish quvvatining vaqt bo‘yicha kamayishi noma’lum bo‘lishi mumkin. Bunday fizik jarayonlarni o‘rganish esa ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Shuningdek, $F(x,t)=f(x)$ bo‘lgan hol noqonuniy oqova suv tashlamalarini aniqlash kabi masalalarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday masalalarning fizik mohiyati va amaliy ahamiyati ularni turli sohalarda o‘rganishga sabab bo‘lmoqda. Shuning uchun, kasr tartibli tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarning yechimlarini qurish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda aniq va tabiiy fanlar, jumladan, matematika, fizika, biologiya, geologiya sohalarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, kasr tartibli va xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasini rivojlantirish muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Chunki bu nazariya mexanika, elektronika, boshqaruv tizimlari, fiziologiya va biologik jarayonlarni tushunishda asosiy rol o‘ynaydi. Yuqorida ta’kidlanganidek, muhim yo‘nalishlar bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqot olib borish, matematika fanining asosiy vazifasi va faoliyat yo‘nalishi etib belgilandi[1]. Mamlakatimiz mutaxassislari tomonidan mazkur sohalarda salmoqli natijalar qo‘lga kiritilib, ular yuqoridagi farmon ijrosini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

[1] O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 maydagi «O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish to’g’risida » gi № 292-sonli qarori.

Mamlakatimizda differensial tenglamalar va matematik fizika kabi muhim yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro miqiyosda olib borilayotgan tadqiqotlar, fundamental tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishi sifatida qaralayotgani quvonarlidir.

Mazkur dissertatsiya ishining predmeti va tadqiqot ob’yekti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi" haqidagi farmonlarida belgilangan vazifalariga mos keladi, 2017 yil 17-fevraldagi PQ-2789 "Fanlar Akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Prezident qarori, 2018 yil 27 apreldagi "Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-3682-sonli qarori va 2019 yil 9 iyuldagi "Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4387 sonli Prezident qarori hamda 2020 yil 7 maydagi "Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4708 sonli Prezident qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kasr tartibli differensial tenglamalar va ular bilan bog‘liq bo‘lgan to‘g‘ri va teskari masalalar zamonaviy matematikaning faol tadqiqot sohasiga aylandi. Bu sohada Sh.O. Alimov, R.R.Ashurov, S.R. Umarov, M. Yamamoto, Z. Li, A.V. Psxu, M. Kirane, M. Ruzhansky, D.Q. Durdiyev, Yu.E. Fayziyev, Z.A. Sobirov, E.T. Karimov, B.X. Turmetov, Y. Zhang, X.T. Nguyn, A.S. Malik va boshqa ko‘plab matematik olimlarning salmoqli hissasi bor. Kasr tartibli differensial tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarning yechimining mavjudligi va yagonaligi yuqoridagi mualliflarning ishlarida batafsil o‘rganilgan. Turli xil diffuziya va subdiffuziya tenglamalarining o‘ng tomonini aniqlashning teskari masalalari amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, ko‘pgina olimlarning taqdqiqotlari bunday teskari masalalarni hal qilishga bag‘ishlangan. Ammo, shuni ta’kidlash kerakki, shu paytgacha $F(x,t)$ manba funksiyasini aniqlash bo‘yicha hali umumiy nazariya mavjud emas. Hozirgi kungacha bo‘lgan barcha ishlarda manba funksiyasi $F(x,t)\equiv f(x)g(t)$ bo‘lgan holda, $f(x)$ yoki $g(t)$ funksiyani topish teskari masalalari o‘rganilgan.

Matematik olimlar tomonidan manba funksiyasining vaqtga bog‘liq bo‘lmagan qismi ya’ni $f(x)$ funksiyani topishning teskari masalalari ikkita holda o‘rganilgan: $g(t)\equiv 1$ va $g(t)\not\equiv 1$. Diffuziya va subdiffuziya tenglamalari uchun $g(t)\equiv 1$ va $f(x)$ noma’lum holda R.R. Ashurov, M. Kirane, M. Ruzhansky, N.A.

Asl, K. Furati, S. Liu va boshqalar ishlarida batafsil o‘rganilgan. $g(t) \not\equiv 1$. bo‘lgan holda esa $f(x)$ funksiyani topish teskari masalalari biroz murakkab bo‘lib, bunday masalalarning yechilishi $g(t)$ funksiyaga bog‘liq. S.I. Kabanixin, A.I. Prilepko, D.G. Orlovskii, K.B. Sabitov, V.E. Fedorov, M. Slodicka, K. Van Bokstal kabi olimlarning maqolalarida bunday teskari masalalar o‘rganilgan. Bunday masalalarni o‘rganishda mualliflar, asosan, ikki xil ya’ni oxirgi vaqt $(u(x,T)=\psi(x))$ yoki integral ($\int_0^T u(x,t)dt=\psi(x)$) shartlardan qo‘shimcha shart sifatida foydalangan. Klassik diffuziya tenglamalari uchun birinchi shart bilan bunday teskari masalalar S.I. Kabanikhin, A.I. Prilepko, D.G. Orlovskii, K.B. Sabitov, I.V. Tikhonov va boshqalarning ishlarida o‘rganilgan. Subdiffuziya tenglamasiga kelsak, P. Nyu, M. Slodicka va boshqalarning maqolalarda bunday teskari masalalar tahlil qilingan. Ikkinchi shart bilan bunday teskari masalalar A.I. Prilepko, D.G. Orlovskii, K. Van Bokstal, V.E. Fedorov kabi mualliflar tomonidan diffuziya va subdiffuziya tenglamalari uchun o‘rganilgan.

Manba funksiyasining vaqtga bog‘liq bo‘lgan qismini ya’ni $g(t)$ funksiyani aniqlashning teskari masalalarini o‘rganish biroz murakkabroq bo‘lib, bunday teskari masalalar kam tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Diffuziya tenglamalari uchun A. Ashyralyev, E. Azizbayov, M.J. Damirchi, A. Hazanee, M. Slodicka kabi olimlar bunday teskari masalalarni hal qilishga hissa qo‘shgan. Subdiffuziya tenglamalari uchun bunday teskari masalalar M. Yamamoto, K. Sakamoto, Y. Liu, Z. Li, M. Kirane va T. Wei kabi olimlarning maqolalarida o‘rganilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan Oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining F-FA-2021-424-sonli ilmiy tadqiqot grantining rejalashtirilgan mavzusiga muvofiq amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi subdiffuziya tenglamasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy, hamda diffuziya, subdiffuziya va kasr tartibli Shredinger tipidagi tenglamalarining manba funksiyasini topish bo‘yicha teskari masalalarning klassik yechimlarini topishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

elliptik qismi ixtiyoriy N o‘lchamli sohada aniqlangan Laplas operatori bo‘lgan Kaputo kasr hosilali subdiffuziya tenglamasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalaning klassik ma’nosida yagona yechimining mavjud ekanligini isbotlash;

Kaputo va Riman-Liuvill kasr hosilali diffuziya va subdiffuziya tenglamalarining o‘ng tomonining vaqtga bog‘liq bo‘lmagan qismini aniqlash bo‘yicha teskari masalalarning klassik ma’nosida yagona yechimining mavjud ekanligini isbotlash;

Kaputo va Riman-Liuvill kasr hosilali Shredinger va subdiffuziya tenglamalarini o‘ng tomonining vaqtga bog‘liq qismini aniqlash bo‘yicha teskari masalalarning klassik ma’nosida yagona yechimining mavjud ekanligini isbotlash.

Tadqiqotning obyekti klassik diffuziya tenglamasi, Kaputo va Riman-Liuvill kasr hosilali Shredinger va subdiffuziya tenglamalari.

Tadqiqotning predmeti boshlang‘ich-chegaraviy masalasi va tenglamalarning o‘ng tomonini aniqlashning teskari masalalari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda funksional analiz usullari, spektral nazariya va Furye usullari qo‘llaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

elliptik qismi ixtiyoriy N o‘lchamli sohada aniqlangan Laplas operator bo‘lgan Kaputo kasr hosilali subdiffuziya tenglamasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalaning klassik ma’noda yagona yechimining mavjud ekanligi isbotlangan;

Kaputo va Riman-Liuvill kasr hosilali subdiffuziya va diffuziya tenglamalarining o‘ng tomonining vaqtga bog‘liq bo‘lmagan qismini aniqlash bo‘yicha teskari masalalarning klassik ma’noda yagona yechimining mavjud ekanligini isbotlangan;

Kaputo va Riman-Liuvill kasr hosilali Shredinger va subdiffuziya tenglamalarining o‘ng tomonining vaqtga bog‘liq qismini aniqlash bo‘yicha teskari masalalarning klassik ma’noda yagona yechimining mavjud ekanligini isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Ushbu dissertatsiyada olingan natijalar va qo‘llanilgan usullar oliy o‘quv yurtlari magistrantlari va doktorantlari uchun bitiruv kursi sifatida o‘qitilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Natijalar funksional analiz, spektral nazariya va Furye usuli yordamida olingan. Olingan barcha natijalar matematik jihatdan to‘g‘ri.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, olingan ilmiy natijalar diffuziya, subdiffuziya va kasr tartibli Shredinger tenglamalari uchun boshlang‘ich-chegaraviy va teskari masalalarni yanada chuqurroq tadqiq qilishda qo‘llanilishi mumkin.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan natijalar texnik, fizik va biologik jarayonlarni matematik modellashtirishda qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot ishlarning joriy qilinishi. Kasr tartibli Shredinger va subdiffuziya tenglamalari uchun to‘g‘ri va teskari masalalar bo‘yicha dissertatsiya ishida olingan natijalar asosida:

Kaputo va Riman-Liuvill kasr hosilali Shredinger va subdiffuziya tenglamalarining o‘ng tomonining vaqtga bog‘liq qismini aniqlash bo‘yicha teskari masalalarning klassik yechimlaridan 22-11-00064 raqamli “Geosferadagi dinamik jarayonlarni irsiyatni hisobga olgan holda modellashtirish” mavzusidagi xorijiy loyihada subdiffuziya tenglamalari uchun to‘g‘ri va teskari masalalarni tasniflashda foydalanilgan (Kosmofizika tadqiqotlari va radioto‘lqinlar tarqalish instituti 2025 yil 12-maydagi № 211-sonli ma’lumotnoma, Rossiya Federatsiyasi). Ilmiy natijani qo‘llanilishi subdiffuziya tenglamasida radon chiqishining manba funksiyasini aniqlash imkonini;

elliptik qismi ixtiyoriy o‘lchamli sohada aniqlangan Laplas operator bo‘lgan, Kaputo kasr hosilali subdiffuziya tenglamasi uchun to‘g‘ri va teskari masalalarning yechimlaridan 122041800013-4 raqamli “Umumlashgan kasr tartibli differensial operatorli tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni o‘rganish, ularni fizik va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni modellashtirishda qo‘llash” mavzusidagi xorijiy loyihada turli fizikaviy va biologik jarayonlarni matematik modellashtirishda foydalanilgan (Kabardin-Balkar ilmiy markazi Amaliy matematika va avtomatlashtirish institutining 2025 yil 16-apreldagi № 01-13/48-sonli ma’lumotnomasi, Rossiya Federatsiyasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi turli fizikaviy va biologik jarayonlarni matematik modellashtirishda samarali qo‘llanilayotgan kasr tartibli hosila qatnashgan evolyutsion tenglamalar uchun lokal va nolokal chegaraviy masalalarni yechish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 12 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy anjumanlarida muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 20 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo‘lib, shundan, 6 ta maqola O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda chop etilgan, shulardan 2 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida chop etilgan bo‘lib, ulardan 5 tasi SCOPUS ma’lumotlar bazalarida indekslangan va 14 tasi tezisdir.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 105 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob’ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertasiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Dastlabki ma’lumotlar”** deb nomlangan birinchi bobi yordamchi xususiyatga ega bo‘lib, dissertatsiyani o‘qish qulay bo‘lishi uchun yaratilgan. Bu yerda yangi natijalar yo‘q, faqat kerakli ta’riflar va tasdiqlar to‘plangan.

Keling, birinchi bobdagi ba’zi kerakli ma’lumotlarni keltiraylik.

Hilbert fazosida abstrakt operator. $(\cdot,\cdot)$ skalyar ko‘paytma va norma $\|\cdot\|$ aniqlangan H separabel Hilbert fazosi bo‘lsin. Aytaylik, $A: H \to H$ operator H fazoda aniqlangan bo‘lib, o‘z-o‘ziga qo‘shma, quyidan chegaralangan, musbat aniqlangan bo‘lsin. Faraz qilaylik, A operator kompakt A^{-1} teskari operatorga ega. U holda u to‘la ortonormal $\{v_k\}$ xos vektorlar sistemasiga va ularga mos $\{\lambda_k\}$ musbat xos sonlar to‘plamiga ega bo‘ladi, ya’ni v_k vektorlar va λ_k sonlar

$Av_k = \lambda_k v_k$ tenglikni qanoatlantiradi. Xos sonlarni qayta nomerlash yordamida ularni kamaymaydigan qilib nomerlab olamiz, ya'ni $0 < \lambda_1 \leq \lambda_2 \cdots \to +\infty$.

Keling, H Hilbert fazosida A operatornig darajasi tushunchasini eslatib o'taylik. τ ixtiyoriy haqiqiy son bo'lsin. Biz H da A operatorning darajasini quyidagicha kiritamiz:

$$A^\tau h = \sum_{k=1}^{\infty} \lambda_k^\tau h_k v_k,$$

bu yerda $h_k = (h, v_k)$ lar $h \in H$ elementning Furye koeffitsiyentlari. Shubhasiz, ushbu operatorning aniqlanish sohasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$D(A^\tau) = \{h \in H : \sum_{k=1}^{\infty} \lambda_k^{2\tau} |h_k|^2 < \infty\}.$$

Laplas operatorining o'z-o'ziga qo'shma kengaytmasi. Biz yuqorida Hilbert fazosida abstrakt o'z-o'ziga qo'shma operatorni ko'rib chiqdik. Biz qo'llagan usulda, A operator faqat to'la ortonormal xos vektorlar sistemasiga ega bo'lishi talab qilinganligi sababli, M. Ruzhansky va boshqalarning ishida berilgan har qanday elliptik operatorni A operator deb hisoblash mumkin. Masalan, $L_2(\Omega)$, $\Omega \subset \mathbb{R}^N$, ni H Hilbert fazosi. Aytaylik, A operator $L_2(\Omega)$ da $Ag(x) = -\Delta g(x)$ kabi aniqlangan, $D(A) = \{g \in C^2(\overline{\Omega}) : g(x) = 0, x \in \partial\Omega\}$ aniqlanish sohaga ega bo'lsin. A operatorning $L_2(\Omega)$ dagi o'z-o'ziga qo'shma kengaytmasini $\hat{A}$ bilan belgilaymiz.

Aytaylik, σ ixtiyoriy haqiqiy son bo'lsin. $L_2(\Omega)$ fazoda $\hat{A}$ operatorning darajasini quyidagicha aniqlaymiz:

$$\hat{A}^\sigma g(x) = \sum_{k=1}^{\infty} \lambda_k^\sigma g_k v_k(x), \quad g_k = (g, v_k),$$

va aniqlanish sohasi quyidagi shaklga ega

$$D(\hat{A}^\sigma) = \{g \in L_2(\Omega) : \sum_{k=1}^{\infty} \lambda_k^{2\sigma} |g_k|^2 < \infty\}.$$

V.A. Il'inning teoremasi. Tenglamaning elliptik qismi Laplas operatori bo'lganda, Furye usulida boshlang'ich-chegaraviy masalalarning yechimlarining mavjudligini isbotlash uchun

$$\sum_{k=1}^{\infty} \lambda_k^\tau |h_k|^2, \quad \tau > \frac{N}{2}, \tag{1}$$

ko'rinishdagi qatorlarning yaqinlashuvchi ekanligini o'rganish kerak bo'ladi, bunda h_k lar $h(x)$ funksiyaning Furye koeffitsiyentlari. τ sonining butun qiymatlarida (1) qatorning yaqinlashishi uchun $h(x)$ funksiyaning qaysi $W_2^k(\Omega)$ klassik Sobolev fazolariga tegishligi bo'lishlik shartlari V.A. Il'inning fundamental ishida ko'rsatilgan. Ushbu shartlarni keltirish uchun biz $\dot{W}_2^1(\Omega)$ sinfni kiritamiz. Ω sohada uzluksiz differensiallanuvchi va $\partial\Omega$ chegaraning atrofida nolga teng barcha funksiyalar to'plamini $W_2^1(\Omega)$ ning normasi bo'yicha yopilmasini belgilaymiz.

Demak, agar $h(x)$ funksiya quyidagi

$$h(x)\in W_2^{\left[\frac{N}{2}\right]+1}(\Omega) \text{ va } h(x),\ \Delta h(x),\ \cdots,\ \Delta^{\left[\frac{N}{4}\right]}h(x)\in \dot{W}_2^1(\Omega), \tag{2}$$

shartlarni qanoatlantirsa, u holda (1) qator $\tau=\left[\frac{N}{2}\right]+1$ bo‘lganda yaqinlashuvchi bo‘ladi.

Xuddi shunday, agar (1) da τ ni $\left[\frac{N}{2}\right]+3$ ga almashtirsak, yaqinlashish shartlari quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$h(x)\in W_2^{\left[\frac{N}{2}\right]+3}(\Omega), \quad \text{va} \quad h(x),\Delta h(x),\cdots,\Delta^{\left[\frac{N}{4}\right]+1}h(x)\in \dot{W}_2^1(\Omega). \tag{3}$$

Hölder sinflari. Laplas operatori bir o‘lchamli holatda Hölder sinflarini quyidagicha kiritish biz uchun qulaydir**.** $\omega_g(\delta)$ qiymat $g(x)\in C[0,\pi]$ funksiyaning uzluksizlik moduli bo‘lsin ya’ni:

$$\omega_g(\delta)=\sup_{|x_1-x_2|\le\delta}|g(x_1)-g(x_2)|, \quad x_1,x_2\in[0,\pi].$$

Agar ba’zi $a>0$ uchun quyidagi tengsizlik

$$\omega_g(\delta)\le C\delta^a \tag{4}$$

o‘rinli bo‘lsa, (bu yerda C o‘zgarmas δ ga bog‘liq emas va $g(0)=g(\pi)=0$), u holda $g(x)$ funksiya $C^a[0,\pi]$ Hölder sinfiga tegishli deyiladi. Keling, biz bunday C o‘zgarmaslarning eng kichigini $\|g\|_{C^a[0,\pi]}$ orqali belgilaymiz.

$g''(x)$ funksiya (4) shartni qanoatlantirsin, ya’ni $\omega_{g''}(\delta)\le C\delta^a$, va $g(0)=g(\pi)=0$, $g''(0)=g''(\pi)=0$ shartlar bajarilsin. Bu shartlarni bajaruvchi $g(x)$ funksiyalar sinfini $C_2^a[0,\pi]$ orqali belgilaymiz.

Dissertatsiyaning asosiy natijalari ikkinchi bobdan boshlanadi. Ushbu bob **“Elliptik qismi Laplas operator bo‘lgan diffuziya va subdiffuziya tenglamalari uchun to‘g‘ri va teskari masalalar”** deb nomlanadi.

Ushbu bobning birinchi bo‘limida N o‘lchamli Ω sohada elliptik qismi Laplas operatori bo‘lgan Kaputo kasr hosilali subdiffuziya tenglamasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masala o‘rganildi.

Aytaylik, B Banax fazosi va $AC[0,T]$ to‘plam $[0,T]$ da aniqlangan absolyut uzluksiz funksiyalar to‘plami bo‘lsin. Biz $AC([0,T];B)$ orqali $[0,T]$ da absolyut uzluksiz va qiymatlari B dan bo‘lgan funksiyalar fazosini belgilaymiz. $C([0,T];B)$ fazo ham xuddi shunday aniqlanadi.

1-masala. Aytaylik, $\rho\in(0,1)$ bo‘lsin. Quyidagi boshlang‘ich-chegaraviy masalani

$$\begin{cases} D_t^\rho u(x,t)-\Delta u(x,t)=F(x,t)\equiv f(x)g(t), \quad x\in\Omega, \quad t\in(0,T], \\ u(x,t)|_{\partial\Omega}=0, \\ u(x,0)=\varphi(x), \quad x\in\overline{\Omega}, \end{cases} \tag{5}$$

qanoatlantiruvchi, hamda $D_t^\rho u(x,t)\in C(\overline{\Omega}\times(0,T])$, $\Delta u(x,t)\in C(\overline{\Omega}\times(0,T])$ xossalarga ega bo‘lgan $u(x,t)\in AC([0,T];C(\overline{\Omega}))$ funksiyani toping. Biz bu qidirilayotgan $u(x,t)$ funksiyani masalaning klassik yechimi deb ataymiz.

Bu yerda $g(t)\in C[0,T]$, $f(x)$ va $\varphi(x)$ esa $\Omega\subset R^N$ sohada berilgan uzluksiz funksiyalar.

1-teorema. *Aytaylik, $g(t)\in C[0,T]$ bo‘lsin. Bundan tashqari, $\varphi(x)$ va $f(x)$ funksiyalar (2) shartlarni qanoatlantirsin. U holda (5) boshlang‘ich-chegaraviy masalaning yagona yechimi mavjud va u quyidagi qator ko‘rinishga ega bo‘ladi:*

$$u(x,t)=\sum_{k=1}^{\infty}\left[\varphi_k E_\rho(-\lambda_k t^\rho)+f_k\int_0^t \eta^{\rho-1}E_{\rho,\rho}(-\lambda_k\eta^\rho)g(t-\eta)d\eta\right]v_k(x), \qquad (6)$$

va bu qator $x\in\overline{\Omega}$ da va barcha $t\in[0,T]$ lar uchun absolyut va tekis yaqinlashadi.

Bu yerda φ_k, f_k lar mos ravishda, $\varphi(x)$, $f(x)$ funksiyalarining Furye koeffitsientlaridir, masalan $\varphi_k=(\varphi,v_k)$.

Ushbu bobning ikkinchi bo‘limida (5) boshlang‘ich-chegaraviy masaladagi subdiffuziya tenglamasining o‘ng tomonidagi vaqtga bog‘liq bo‘lmagan qismini topish teskari masalasi o‘rganildi.

2-masala. Aytaylik, $\rho\in(0,1]$ bo‘lsin. (5) boshlang‘ich-chegaraviy masalani va quyidagi qo‘shimcha shartni

$$u(x,t_0)=\psi(x),\quad x\in\overline{\Omega}, \qquad (7)$$

qanoatlantiruvchi, hamda $D_t^\rho u(x,t),\Delta u(x,t)\in C(\overline{\Omega}\times(0,T])$ xossalarga ega bo‘lgan $u(x,t)\in AC([0,T];C(\overline{\Omega}))$ va $f(x)\in C(\overline{\Omega})$ funksiyalar juftligini toping.

Bu yerda $\psi(x)$ funksiya $\Omega\in R^N$ sohada berilgan ma’lum funksiya, t_0 esa $(0,T]$ segmentda berilgan ixtiyoriy fiksirlangan nuqta.

Bu teskari masalani yechish uchun, biz (5) boshlang‘ich-chegaraviy masalaning (6) yechimiga (7) qo‘shimcha shartni qo‘llaymiz va ψ_k orqali $\psi(x):\psi_k=(\psi,v_k)$ funksiyaning Furye koeffitsientlarini belgilaymiz. U holda quyidagi tenglikka ega bo‘lamiz:

$$\sum_{k=1}^{\infty} f_k b_{k,\rho}(t_0)v_k(x)=\sum_{k=1}^{\infty}\psi_k v_k(x)-\sum_{k=1}^{\infty}\varphi_k E_\rho(-\lambda_k t_0)v_k(x),$$

bu yerda

$$b_{k,\rho}(t)=\int_0^t (t-s)^{\rho-1}E_{\rho,\rho}(-\lambda_k(t-s)^\rho)g(s)ds.$$

Biz bu tenglikdan f_k koeffitsientlarni topish uchun, Furye koeffitsientlarini tenglashtiramiz va quyidagi tenglikka ega bo‘lamiz:

$$f_k b_{k,\rho}(t_0)=\psi_k-\varphi_k E_\rho(-\lambda_k t_0).$$

Bu tenglikka ko‘ra, f_k koeffitsientlarni topish uchun $b_{k,\rho}(t_0)$ ifodaning noldan farqli bo‘lishi muhim. Agar $g(t)$ funksiya ishorasi almashmaydigan funksiya bo‘lsa, $b_{k,\rho}(t_0)$ ifoda barcha k larda noldan farqli. Aks holda ya’ni $g(t)$ funksiya ishorasi almashinuvchi funksiya bo‘lsa, u holda $b_{k,\rho}(t_0)=0$ bo‘lishi mumkin. Bu holda yechimning yagonaligi yo‘qolishi mumkin. Keling, bu hol uchun quyidagi misolni keltiramiz.

1-misol *($g(t)$ funksiya ishorasi almashinuvchi bo‘lganda). Quyidagi $u(x,t)$ va $f(x)$ funksiyalar juftligini topish bo‘yicha teskari masala berilgan bo‘lsin:*

$$\begin{cases} D_t^\rho u(x,t)-\Delta u(x,t)=f(x)g(t), \quad (x,t)\in\Omega\times(0,T], \\ u(x,t)|_{\partial\Omega}=0, \\ u(x,0)=0, \quad x\in\overline{\Omega}, \\ u(x,t_0)=0, \quad x\in\overline{\Omega}. \end{cases} \tag{8}$$

Laplas operatorining bir jinsli Dirixle chegaraviy shartlarni ya’ni

$$\begin{cases} -\Delta v=\lambda v \\ v(x)|_{\partial\Omega}=0 \end{cases}$$

qanoatlantiruvchi λ ga mos *v xos funksiyasini olamiz. Bundan tashqari, $t_0=1$ va $T(t)=t^\rho(1-t^b)$, $b>0$ bo‘lsin. U holda $g(t)=D_t^\rho T(t)+\lambda T(t)$ uchun, $u(x,t)=T(t)v(x)$ va $f(x)=v(x)$ yechimlar (8) masalani qanoatlantiradi.*

U holda, biz (8) masalaning $(u,f)=(0,0)$ trivial yechimidan tashqari, $u(x,t)=T(t)v(x),\ f(x)=v(x)$. notrivial yechimiga ham ega bo‘lamiz.

Bu misolda, $b=0.1$ va $\rho=0.5$ deb parametrlarni tanlash orqali, $g(t)$ funksiyaning ishorasi almashinuvchi ekanini ko‘rsatish qiyin emas:

$$g(t)=\frac{\rho B(\rho,1-\rho)}{\Gamma(1-\rho)}-\frac{(b+\rho)t^\rho B(b+\rho,1-\rho)}{\Gamma(1-\rho)}+\lambda t^\rho(1-t^b),$$

va

$$g(0)=0.5\Gamma(0.5)=\frac{\sqrt{\pi}}{2}>0, \qquad g(1)=\frac{\sqrt{\pi}}{2}-\frac{0.6\Gamma(0.6)}{\Gamma(1.1)}<0.$$

Keling, N natural sonlar to‘plamini ikkita guruhga ajrataylik $N=K_\rho\cup K_{0,\rho}$:

1) Agar $b_{k,\rho}(t_0)=0$ bo‘lsa, u holda $k\in K_{0,\rho}$;

2) Aks holda esa ya’ni agar $b_{k,\rho}(t_0)\neq 0$ bo‘lsa, u holda $k\in K_\rho$.

Endi (5), (7) teskari masalani yechish uchun $g(t)$ funksiyaning ishorasi almashmaydigan va almashinuvchi hollarini alohida qaraymiz.

Birinchi, $g(t)$ funksiya ishorasi almashmaydigan hol uchun quyidagi asosiy lemmani keltiramiz.

1-lemma. *Aytaylik, $g(t)\in C[0,T]$, $g(t)\geq 0$ (yoki $g(t)\leq 0$), $t\in[0,T]$ va $\exists\tau\in[0,t_0]$, $g(\tau)\neq 0$ bo‘lsin. U holda barcha $k\in N$ lar uchun quyidagi baho o‘rinli:*

$$|b_{k,\rho}(t_0)|\geq\frac{C_0}{\lambda_k}.$$

Bu yerda $C_0>0$ o‘zgarmas son t_0 ga bog‘liq.

Endi 1-lemmaga ko‘ra, $g(t)$ funksiya ishorasi almashmaydigan holda quyidagi natijani taqdim etamiz.

2-teorema. *Aytaylik,* $g(t)\in C[0,T]$, $g(t)\ge 0$ (*yoki* $g(t)\le 0$), $t\in[0,T]$ *va* $\exists\,\tau\in[0,t_0]$, $g(\tau)\ne 0$ *bo‘lsin. Bundan tashqari,* $\varphi(x)$ *funksiya (2) shartlarni va* $\psi(x)$ *funksiya (3) shartlarni qanoatlantirsin. U holda (5), (7) teskari masalaning yagona yechimi mavjud va u quyidagi qator ko‘rinishiga ega:*

$$f(x)=\sum_{k=1}^{\infty}\frac{1}{b_{k,\rho}(t_0)}\left[\psi_k-\varphi_k E_\rho(-\lambda_k t_0^{\rho})\right]v_k(x), \tag{9}$$

$$u(x,t)=\sum_{k=1}^{\infty}\varphi_k E_\rho(-\lambda_k t^{\rho})v_k(x)+\sum_{k=1}^{\infty}\frac{b_{k,\rho}(t)}{b_{k,\rho}(t_0)}\left[\psi_k-\varphi_k E_\rho(-\lambda_k t_0^{\rho})\right]v_k(x), \tag{10}$$

va bu qator $x\in\overline{\Omega}$ *da va barcha* $t\in[0,T]$ *lar uchun absolyut va tekis yaqinlashadi.*

Bu yerda φ_k, ψ_k *lar mos ravishda,* $\varphi(x)$, $\psi(x)$ *funksiyalarining Furye koeffitsientlaridir.*

Endi $g(t)$ funksiya ishorasi almashinuvchi bo‘lgan holda quyidagi lemmani keltiramiz.

2-lemma. *Aytaylik,* $\rho\in(0,1]$, $g(t)\in C^1[0,T]$ *va* $g(t_0)\ne 0$ bo‘lsin. *U holda shunday* k_0 *soni mavjudki barcha* $k\ge k_0$ *lar uchun quyidagi baho o‘rinli:*

$$|b_{k,\rho}(t_0)|\ge\frac{C_0}{\lambda_k}, \tag{11}$$

bu yerda $C_0>0$ *o‘zgarmas son* ρ, k_0 *va* t_0 *ga bog‘liq.*

2-lemmaga ko‘ra, $g(t)$ funksiya ishorasi almashmaydigan holda quyidagi tasdiqlarni olishimiz mumkin.

1-tasdiq. *Agar 2-lemmaning barcha shartlari bajarilsa, u holda (11) quyi baho barcha* $k\in K_\rho$ *lar uchun o‘rinli.*

2-tasdiq. *Agar 2-lemmaning barcha shartlari bajarilsa va* $K_{0,\rho}$ *to‘plam bo‘sh bo‘lmasa, u holda* $K_{0,\rho}$ *to‘plam chekli elementlarga ega bo‘ladi.*

Endi $g(t)$ funksiya ishorasi almashinuvchi bo‘lgan hol uchun quyidagi natijani taqdim etamiz.

3-teorema. *Aytaylik,* $\rho\in(0,1]$, $g(t)\in C^1[0,T]$ *va* $g(t_0)\ne 0$ *bo‘lsin. Bundan tashqari,* $\varphi(x)$ *funksiya (2) shartlarni va* $\psi(x)$ *funksiya (3) shartlarni qanoatlantirsin.*

1. Agar $K_{0,\rho}$ *to‘plam bo‘sh bo‘lsa, u holda (5), (7) teskari masalaning yagona yechimi mavjud va u (9)-(10) ko‘rinishda aniqlanadi.*

2. Agar $K_{0,\rho}$ *to‘plam bo‘sh bo‘lmasa, u holda (5), (7) teskari masalaning yechimining mavjudligi uchun quyidagi shartlarning bajarilishi zarur va yetarli:*

$$\psi_k=\varphi_k E_\rho(-\lambda_k t_0^{\rho}),\quad k\in K_{0,\rho}. \tag{12}$$

Bu holda, (1), (3) teskari masalaning yechimi mavjud, ammo yagona emas:

$$f(x)=\sum_{k\in K_\rho}\frac{1}{b_{k,\rho}(t_0)}\left[\psi_k-\varphi_k E_\rho(-\lambda_k t_0{}^\rho)\right]v_k(x)+\sum_{k\in K_{0,\rho}} b_k v_k(x),$$

$$u(x,t)=\sum_{k=1}^{\infty}[\varphi_k E_\rho(-\lambda_k t^\rho)+f_k b_{k,\rho}(t)]v_k(x),$$

bu yerda b_k, $k\in K_{0,\rho}$, *ixtiyoriy haqiqiy sonlar.*

1-izoh. *Shuni ta'kidlashimiz kerakki, (12) shartlar ham zarur, ham yetarli. Bu shartlarni tekshirish biroz qiyin. Shuning uchun biz (12) shartlarni tekshirish oson bo'lgan quyidagi yetarli shartlar bilan almashtirishimiz mumkin:*

$$\varphi_k=(\varphi,v_k)=0,\quad \psi_k=(\psi,v_k)=0,\quad k\in K_{0,\rho}.$$

Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu bo'limda teskari masala uchun keltirilgan natijalar diffuziya tenglamalari uchun ham mutlaqo yangidir.

Uchinchi bob **"Diffuziya va subdiffuziya tenglamalari uchun teskari masalalarning kuchli yechimlari"** deb nomlanadi.

Ushbu bobning birinchi bo'limida H separabel Hilbert fazosida Riman-Liuvill kasr hosilali subdiffuziya tenglamasining elliptik qismi abstrakt operator bo'lgan holda, tenglamaning o'ng tomonidagi vaqtga bog'liq bo'lmagan qismini topish teskari masalasi o'rganildi.

3-masala. Aytaylik, $\rho\in(0,1)$ bo'lsin. Quyidagi Koshi masalasini

$$\begin{cases}\partial_t^\rho u(t)+Au(t)=g(t)f+p(t), & t\in(0,T],\\ \lim\limits_{t\to0} J_t^{\rho-1}u(t)=\varphi,\end{cases}\tag{13}$$

va

$$u(t_0)=\psi,\tag{14}$$

qo'shimcha shartni qanoatlantiruvchi, hamda $\partial_t^\rho u(t),\ Au(t)\in C((0,T];H)$ xossalarga ega bo'lgan $t^{1-\rho}u(t)\in C([0.T];H)$ funksiya va $f\in H$ elementni toping. Bu yerda $g(t)\in C[0,T]$, $p(t)\in C((0,T];H)$, φ, ψ esa H Hilbert fazosida berilgan ma'lum elementlar va t_0 esa $(0,T]$ da ixtiyoriy fiksirlangan nuqta.

Bu teskari masala uchun olingan natijalarni $g(t)$ funksiya ishorasi almashmaydigan va almashinuvchi hollar uchun alohida taqdim etamiz.

4-teorema. *Aytaylik,* $\varphi\in H$, $\psi\in D(A)$ *va ba'zi* $\epsilon\in(0,1)$ *uchun* $t^{1-\rho}p(t)\in C([0,T];D(A^\epsilon))$ *bo'lsin. Bundan tashqari,* $g(t)$ *funksiya 1-lemmaning barcha shartlarini qanoatlantirsin. U holda (13)-(14) teskari masalaning yagona yechimi mavjud va u quyidagi qator ko'rinishiga ega:*

$$f=\sum_{k=1}^{\infty}\frac{1}{b_{k,\rho}(t_0)}\left[\psi_k-t_0^{\rho-1}\varphi_k E_{\rho,\rho}(-\lambda_k t_0^\rho)-P_k(t_0)\right]v_k,\tag{15}$$

$$u(t)=\sum_{k=1}^{\infty}\left[t^{\rho-1}\varphi_k E_{\rho,\rho}(-\lambda_k t^\rho)+P_k(t)\right]v_k\tag{16}$$

$$+\sum_{k=1}^{\infty}\frac{b_{k,\rho}(t)}{b_{k,\rho}(t_0)}\left[\psi_k-t_0^{\rho-1}\varphi_k E_{\rho,\rho}(-\lambda_k t_0^\rho)-P_k(t_0)\right]v_k,$$

bu yerda

$$P_k(t)=\int_0^t (t-\eta)^{\rho-1}E_{\rho,\rho}(-\lambda_k(t-\eta)^\rho)p_k(\eta)d\eta$$

va φ_k, ψ_k *lar mos ravishda,* φ, ψ *elementlarining Furye koeffitsientlaridir.*

5-teorema. *Aytaylik,* $\varphi\in H$, $\psi\in D(A)$ *va ba'zi* $\epsilon\in(0,1)$ *uchun* $t^{1-\rho}p(t)\in C([0,T];D(A^\epsilon))$ *bo'lsin. Bundan tashqari,* $g(t)$ *funksiya 2-lemmaning barcha shartlarini qanoatlantirsin.*

1) Agar $K_{0,\rho}$ *to'plam bo'sh bo'lsa, u holda (13)-(14) teskari masalaning yagona yechimi mavjud va u (15)-(16) qator ko'rinishda aniqlanadi.*

2) Agar $K_{0,\rho}$ *to'plam bo'sh bo'lmasa, u holda (13)-(14) teskari masalaning yechimining mavjudligi uchun quyidagi shartlarning bajarilishi zarur va yetarli:*

$$\psi_k=t_0^{\rho-1}\varphi_kE_{\rho,\rho}(-\lambda_kt_0^\rho)+P_k(t_0),\quad k\in K_{0,\rho}. \tag{17}$$

Bu holda, (13)-(14) teskari masalaning yechimi mavjud, ammo yagona emas:

$$f=\sum_{k\in K_\rho}\frac{1}{b_{k,\rho}(t_0)}\left[\psi_k-t_0^{\rho-1}\varphi_kE_{\rho,\rho}(-\lambda_kt_0^\rho)-P_k(t_0)\right]v_k+\sum_{k\in K_{0,\rho}}b_kv_k,$$

$$u(t)=\sum_{k=1}^{\infty}[t^{\rho-1}\varphi_kE_{\rho,\rho}(-\lambda_kt^\rho)+f_k+P_k(t)]v_k,$$

bu yerda b_k, $k\in K_{0,\rho}$, *ixtiyoriy haqiqiy sonlar.*

2-izoh. (17) *zarur va yetarli shartlarni ham tekshirish oson bo'lgan ortogonallik shartlariga almashtirishimiz mumkin:*

$$\varphi_k=(\varphi,v_k)=0,\quad \psi_k=(\psi,v_k)=0,\quad p_k(t)=(p(t),v_k)=0,\quad k\in K_{0,\rho}.$$

Ushbu bobning ikkinchi bo'limida nolokal chegaraviy shartli subdiffuziya tenglamasining o'ng tomonidagi vaqtga bog'liq bo'lmagan qismini topish teskari masalasi H separabel Hilbert fazosida o'rganildi.

4-masala. Aytaylik, $\rho\in(0,1]$ bo'lsin. Quyidagi nolokal chegaraviy masalani

$$\begin{cases} D_t^\rho u(t)+Au(t)=g(t)f, & t\in(0,T],\\ u(T)=u(0), \end{cases} \tag{18}$$

va

$$\int_0^T u(t)dt=\psi, \tag{19}$$

qo'shimcha shartni qanoatlantiruvchi, hamda $D_t^\rho u(t), Au(t)\in C((0,T];H)$ xossalarga ega bo'lgan $u(t)\in AC([0,T];H)$ funksiya va $f\in H$ elementni toping. Bu yerda $g(t)\in C[0,T]$, φ, ψ esa H Hilbert fazosida berilgan ma'lum elementlar.

Biz (18)-(19) teskari masalani yechish uchun, (18) nolokal chegaraviy masalaning yechimidan foydalanamiz:

Agar $f\in H$ *va* $g(t)\in C[0,T]$ *bo'lsa, u holda (18)* nolokal chegaraviy *masalaning yagona yechimi mavjud:*

$$u(t)=\sum_{k=1}^{\infty}\frac{f_k}{1-E_\rho(-\lambda_kT^\rho)}\left[(1-E_\rho(-\lambda_kT^\rho))b_{k,\rho}(t)+E_\rho(-\lambda_kt^\rho)b_{k,\rho}(T)\right]v_k. \tag{20}$$

Bu yerda $f_k, k \geq 1$, *lar* f *elementning Furye koeffitsientlari.*

